Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 37
PEDAGOGIKA

RANG KONSEPTLARINI O'QITISHNING LINGVOMADANIY METODIKASI: TAKOMILLASHTIRILGAN PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Gulinur Yuzboy qizi Arabova*
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
✉ gulinurarabova9@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada rang konseptlarini (oq, qora, qizil, ko'k, yashil) lingvomadaniy nuqtai nazardan o'qitishning amaliy metodikasi taqdim etiladi. Metodika uchta tamoyilga: differensiallashuv, spirallik va komplekslik tamoyillariga asoslangan bo'lib, 9-11-sinf o'quvchilarida bilim, ko'nikma va munosabat mezonlari bo'yicha bosqichma-bosqich rivojlanishni ta'minlaydi. Maqolada mavjud xalqaro pedagogik metodlarning rang konseptlarining madaniy-semiotik mazmuniga moslashtirilgan va takomillashtirilgan variantlari, xususan, "Colour Semantic Mapping" va "Cross-cultural Situation Task" kabi metodlari namuna sifatida batafsil yoritilgan. Natijalar metodikaning nazariy asoslanganligi va amaliyotga qo'shimcha resurssiz tatbiq etilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar

rang konseptlari, lingvomadaniy kompetensiya, o'qitish metodikasi, madaniyatlararo tahlil, spiral yondashuv, takomillashtirilgan metod.

DOI: 10.5281/zenodo.21743542

KIRISH

Chet tili o'qitishda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish zamonaviy lingvodidaktikaning dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi. Rang konseptlari til birligi sifatida nafaqat denotativ, balki chuqur madaniy va semiotik ma'no tashuvchi hodisa bo'lib, ularni o'qitish o'quvchida madaniyatlararo tafakkurni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Mavjud xorijiy va mahalliy metodikalarda lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirish umumiy til o'qitish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, rang konseptlariga alohida e'tibor qaratilmagan. Shu boisdan rang konseptlarini o'qitishga maxsus yo'naltirilgan, ilmiy asoslangan va amaliyotda sinovdan o'tkazishga tayyor metodika ishlab chiqish dolzarb pedagogik vazifaga aylandi.

Ishlab chiqilgan besh modulli pedagogik model doirasida rang konseptlarini o'qitishning aniq metodikasi ham ishlab chiqildi. Ushbu maqolada shu metodikaning tarkibiy tamoyillari va namunaviy metodlari qisqacha taqdim etilgan. Maqolaning maqsadi rang konseptlarini (oq, qora, qizil, ko'k, yashil) o'qitishning takomillashtirilgan metodikasini, uning nazariy asoslarini va amaliy tatbiq imkoniyatlarini yoritishdan iborat hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Metodika uchta asosiy tamoyilga asoslanadi: birinchi tamoyil differensiallashuv tamoyili bo'lib, bunda 9-sinf uchun reproduktiv, 10-sinf uchun qiyosiy, 11-sinf uchun analitik daraja belgilanadi. Ikkinchi tamoyil esa spirallik tamoyilidir: har bir rang konsepti (oq, qora, qizil, ko'k, yashil) 9-sinfdan 11-sinfgacha tobora chuqurlashib boruvchi mazmunda o'rganiladi. Uchinchi tamoyil ya'ni komplekslik tamoyilida esa har bir rang konsepti uchun kirish, leksik blok, madaniy tahlil, mustahkamlash va refleksiya bosqichlari izchil qamrab olinadi. Ushbu uch tamoyil asosida har bir rang konsepti bo'yicha to'rttadan metod ishlab chiqilgan bo'lib, ular

xalqaro pedagogik amaliyotda mavjud metodlarning rang konseptlarining madaniy-semiotik mazmuniga maxsus moslashtirilgan va takomillashtirilgan variantlaridir.

“***Colour Semantic Mapping” (Rang semantik xaritasi) metodi*** — Byram modelining ”savoirs” (bilimlar) komponenti asosida ishlab chiqilgan [1;124-b]. O‘quvchi doskada ikki ustun tuzadi: birida rang konseptining o‘zbek madaniyatidagi ma’nolari, ikkinchisida ingliz madaniyatidagi ma’nolari, markazda esa ikkala madaniyatda umumiy bo‘lgan ma’nolar joylashtiriladi. Mavjud bir tilli semantik xaritalash metodlaridan farqli o‘laroq, bu variant ikki madaniyatni parallel taqqoslovchi qiyosiy modelga aylantirilgan bo‘lib, o‘quvchida madaniy relativlik tushunchasini va metalinguistik refleksiya ko‘nikmasini shakllantiradi. Metod 9-sinf reproduktiv darajasida, darsning kirish va leksik blok bosqichida qo‘llaniladi.

“Cross-cultural Situation Task” (Madaniyatlararo vaziyat topshirig‘i) metodi — Deardorff modeli asosida ishlab chiqilgan [2;241-266-b]. O‘quvchiga real hayotiy vaziyat taqdim etiladi (masalan, qizil rang bilan bog‘liq kelin libosi vaziyati) va u madaniyatlararo tushunmovchilikni lingvomadaniy bilim yordamida yechishga undaladi. Mavjud situation task metodlaridan farqli ravishda vaziyat aynan rang konseptining madaniy-semiotik farqini yuzaga chiqarish uchun maxsus loyihalangan bo‘lib, o‘quvchi til vakili emas, balki madaniyat vakili va madaniy mediator sifatida ishtirok etadi. Metod 10-sinf qiyosiy darajasida, madaniy tahlil bosqichida qo‘llaniladi.

“Metalinguistic Reflection Card” (Metalinguistik refleksiya kartochkasi) metodi — Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi (ZPD) nazariyasiga asoslanib ishlab chiqilgan [3;159-b]. Dars oxirida o‘quvchi uch savolli kartochka orqali qora rang konsepti bo‘yicha o‘z lingvomadaniy bilimlarini yozma tarzda anglaydi va ifodalaydi: nima bildim, qaysi farq meni ajablantirdi, o‘z madaniyatim haqida yangi nima o‘yladim. Mavjud refleksiya vositalaridan farqli jihatlari shundaki, kartochka aynan rang konseptining madaniy-semiotik mazmuniga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchining rivojlanish dinamikasini kuzatish imkonini beradi. Metod 10-11-sinf darajasida, darsning refleksiya bosqichida qo‘llaniladi.

“Colour Story” (Rang hikoyasi) metodi — Byram modelining “savoir-être” (madaniyatga ochiqlik) komponenti asosida ishlab chiqilgan [1;124-b]. O‘quvchi ikki madaniyat vakillari suhbatiga asoslangan qisqa dialog yozadi, unda ko‘k rang konseptining har ikki madaniyatdagi kamida uchta semantik ma’nosi aks etishi shart. Bu ijodiy yozuv metodi o‘quvchini madaniy vositachi (cultural mediator) roliga qo‘yadi va munosabat mezonini rivojlantirishga xizmat qiladi. Metod 11-sinf analitik darajasida, mustahkamlash va refleksiya bosqichida qo‘llaniladi.

“Microlesson Insert” (Mikrodars kiritish) metodi — Brunerning spiral o‘quv dasturi tamoyiliga asoslangan innovatsion yondashuv [4;97-b]. Mavjud mikrodars metodlaridan farq qiladigan tomoni shundaki, u alohida dars sifatida emas, balki har bir darsning doimiy 5 daqiqalik komponenti sifatida ishlaydi, aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, bitta rang konsepti, bitta madaniy fakt, bitta savol. Bu yondashuv yashil rang konseptini butun yil davomida — 9-sinfdan 11-sinfgacha reproduktiv, qiyosiy va analitik darajalarda — spiral tarzda chuqurlashtirish imkonini beradi va dars vaqtini oshirmasdan mavjud dars mazmuniga organik kirib boradi.

Umumiy qilib aytadigan bo‘lsak, har bir rang konsepti (oq, qora, qizil, ko‘k, yashil) uchun to‘rttadan, jami 20 ta metod ishlab chiqilgan bo‘lib, ular xalqaro pedagogik amaliyotda mavjud metodlarning rang konseptlarining madaniy-semiotik mazmuniga maxsus moslashtirilgan variantlaridir. Har bir metod aniq sinf darajasiga, dars bosqichiga va shakllanadigan ko‘nikmaga ega bo‘lib, o‘qituvchiga rang konseptlarini o‘qitish jarayonini izchil va madaniyatlararo qiyosiy tahlil tamoyillariga mos ravishda tashkil etish imkonini beradi. Metodlarning barchasi mavjud dars mazmuniga qo‘shimcha vaqt va maxsus o‘quv qurollarisiz integratsiya qilinishi bilan ajralib turadi, bu esa ularni resurs imkoniyatlari cheklangan maktablarda ham qo‘llash imkonini beradi.

XULOSA

Taqdim etilgan metodika rang konseptlarini o‘qitish orqali o‘quvchilarda lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirishning ilmiy asoslangan va amaliyotga tatbiq etilishga tayyor tizimi hisoblanadi. Uning afzalligi esa differensiallashuv, spirallik va komplekslik tamoyillarining birgalikda qo‘llanilishida, shuningdek mavjud xalqaro metodlarning rang konseptlarining madaniy-semiotik mazmuniga original tarzda moslashtirilganida namoyon bo‘ladi. Har bir takomillashtirilgan metodning asl variantidan farqi aniq ko‘rsatilgan bo‘lib,

bu metodlarning originalligini ta‘minlaydi.

Metodika O‘zbekiston umumiy o‘rta ta‘lim maktablari sharoitiga to‘liq moslashtirilgan bo‘lib, qo‘shimcha dars vaqti va maxsus o‘quv qurollari talab qilmasdan, mavjud ingliz tili darslariga, jumladan amaldagi darsliklarning madaniyatga oid bo‘limlariga organik tarzda integratsiyalashtirilishi mumkin. Bu xususiyat metodikani resurs imkoniyatlari cheklangan hududlardagi maktablarda ham qo‘llash imkonini beradi va uni amaliy ahamiyatga ega qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. — Clevedon: Multilingual Matters, 1997. — 124 p.

2. Deardorff D.K. Identification and Assessment of Intercultural Competence as a Student Outcome of Internationalization // Journal of Studies in International Education. — 2006. — Vol. 10. — No3. — P. 241-266.

3. Vygotsky L.S.Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes — Cambridge: Harvard University Press, 1978 — 159 p.

4. Bruner J.S. The Process of Education. — Cambridge: Harvard University Press, 1960. — 97 p.